YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MA'NAVIYATINI OSHIRISHDA MILLIY MUSIQA SAN'ATINI AVLODLARGA YETKAZISH

Y.Rajabiy nomidagi milliy musiqa san`ati instituti
"Maqom xonandaligi" kafedrasi professori, O'zbekiston xalq artisti
Ashuraliyev Furqatjon Davron o'g'li
ashuraliyevfurqat@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy musiqa san'atimizning yosh avlodni tarbiyalashdagi munosib o'rni yoritib berilgan. Milliy musiqamiz tarixi va o'rganilishi maqom cholg`u ijrochilik fani misolida tadbiq etilgan. O'rta asr musiqashunoslarining ilmiy-musiqiy merosi va zamonaviy o'zbek kompozitorlarining ijodida milliy musiqa san'atimiz namunalarining qo'llanilishi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg'ona —Toshkent maqom yo'llari, doston, ertak, maqol, qo'shiq, topishmoq, mafkura, psixologiya, ustoz-shogird an'analari.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значимая роль нашего национального музыкального искусства в воспитании подрастающего поколения. История и изучение национальной музыки иллюстрируются на примере исполнения макамов. Обсуждается научное и музыкальное наследие средневековых музыковедов и использование элементов национальной музыки в произведениях современных узбекских композиторов.*

Ключовые слова: *Бухарский Шашмаком, Хорезмские макамы, Ферганo-Ташкентские макамные пути, дастан, сказка, пословица, песня, загадка, идеология, психология, традиции мастер-ученик.*

Abstract: *This article discusses the significant role of our national music art in the upbringing of the younger generation. The history and study of national music are illustrated through the example of maqom instrumental performance. It explores the scientific and musical heritage of medieval musicologists and the incorporation of elements of national music in the works of contemporary Uzbek composers.*

Key words*: Bukhara Shashmaqom, Khorezm maqoms, Fergana-Tashkent maqom paths, epic, fairy tale, proverb, song, riddle, ideology, psychology, master-apprentice traditions.*

KIRISH

Musiqa san'ati estetik did, hissiyot-idrokning bitmas tuganmas manbaidir. Inson yuragini va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyodir. Shuning uchun inson doimo go'zallikka intilishi va kundalik hayotda shu go'zallik qoidalariga amal qilishi

lozim.O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan musiqiy an’analar, tadbirlar, mahalliy marosimlar o‘zbek xalqining ijtimoiy, tarixiy rivojlanishi, etnopsixologik xususiyatlari, hayotiy tajribasi, ijtimoiy qarashlari shakllangan bo‘lib, asrlar davomida avloddan - avlodga o‘tib kelmoqda.

Shu tufayli o‘quvchi-yoshlarda Vatanga muhabbat, mexr-oqibat, odob-axloq, ma’rifiy madaniy tarbiya kabi fazilatlar qaror topib boradi.Ushbu vazifalarni amalga oshirishda mustaqillik yillarida ta’lim, xususan musiqa ta’limining rivojlantirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.O‘zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Ikki daryo oralig‘ida qadimdan shakllangan tamaddunning taraqqiyoti davomida xalq mumtoz musiqasi, an’anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo‘llari, shuningdek, folklor-xavaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirgan xolda rivojlanib keldi.

Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunda ham ma’naviy madaniyatimizning musiqiy sarchashmasi sifatida namyon bo‘lmoqda. “Ma’lumki, buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san’atining rivojlanishi tarixi qadim zamonlardan boshlangan. Buyuk Sharq allomalari Muxammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al- Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Paxlavon Maxmud, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zaxriddin Muhammad Bobur, Abduraxmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy o‘zlarining musiqaga oid risolalarida ijrochilik san’ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg‘u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san’atkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma’lumotlarini bayon etganlar.

Bu boy musiqiy merosning shakllanishi o‘z navbatida mukammal ishlangan cholg‘u asboblarining ixtiro etilishi va mukammallashtirish orqali yuz bergan. Adabiyotshunos olim N.Mallayev o‘zining “O‘zbek adabiyoti tarixi” asarida o‘lkamizda qadimgi zamonlarda musiqaning badiiy adabiyot bilan hamqadam holda rivoj topganini va X-XII asrlarda tanbur, rubob, qo‘biz, zir, nay, chag‘ona, shaypur, surnay, karnay, arounan, qonun kabi torli, zarbli va puflab chalinadigan cholg‘u asboblari keng tarqalganini ko‘rsatib o‘tadi.

Yurtimizning tarixiy shaxarlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan dutor, surnay, qonun va nayga o‘xshash sozlar, toshlarga o‘yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari, miniatyura asarlardagi soxanda va hofizlarning rasmlari o‘lkamizda ijrochilik san’ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi.

Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo‘lmish Maqom, Mo‘g‘om, Dastgoh, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan avlodga og‘zaki ravishda o‘tib kelgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maqom san’atini takomillashtirishda, eng avvalo, azaliy ijro an’analari asnosida yangi ijod navlarini yaratish bilan

mumtoz musiqani rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan 20 dan ortiq qaror va farmoni sohada yangicha munosabatni shakllantirdi.

Davlatimizning “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham yosh avlodni hozirgi zamon talabiga to‘la javob beradigan yetuk mutaxassislar qabilida tarbiyalash nazarda tutilgan. Buning uchun ta’limda barcha sharoitlar yetarli darajada mavjuddir. Biz bilamizki, o‘rta asr musiqashunoslarining ilmiy-musiqiy merosi va zamonaviy o‘zbek kompozitorlarining ijodida xalqimizning noyob durdonalari o‘rin olgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Musiqa ijrochiligi, xalq musiqa ijodiyoti va uning janrlari asosida rivojlanadi. Ijro an’analari va yo‘llari ham ijrochilik amaliyoti jarayonida kengayib, boyib boradi. Aslida ijrochilik amaliyoti og‘zaki tarzda og‘izdan-og‘izga, avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelgan. Ushbu jarayon “ustoz-shogird” an’analari negizida kamol topib kelgan. Maqom cholg`u ijrochilik ta’limi bizgacha ustoz-shogirdlik maktablaritizimi orqali yetib kelgan. Adabiyotlarda bu an’ananing rivojlanib kelganligi qayd etib o‘tilgan.

An’anaviy sozandalikni kasb etish niyatida bo‘lgan har bir cholg`u sohibi albatta bir ustozni etagini tutib, ustozdan ijrochilik, sozandalik sirlarini o‘zlashtirishga harakat qilgan. Xalqimiz tomonidan bu amaliyot albatta o‘zining qoidalariga ega bo‘lganligialohida qayd etib o‘tilgan. Qadimdan bizga ma’lumki, musiqiy qobiliyat, cholg`u imkoniyati va san’atga ishtiyoqi bo‘lmaganlar bu kasbga murojaat etishmagan. Qobiliyati borlar esa o‘z ustoziga mehr qo‘yib, sohasining barcha qiyinchilikariga bardosh berib, kasb o‘rganishga harakat qilib kelgan. Sozandalikning eng muhim xislatlaridan biri ham shunda deyish mumkindir.

Dunyodagi barcha xalqlar kabi o‘zbek xalqi ham o‘zining o‘ziga xos milliy qadriyatlari va shu bilan birgalikda o‘tmishi,tarixi davomida vujudga kelgan, shakllanib rivojlangan ma’naviy, musiqiy va adabiy merosiga egadir. O‘zbek musiqa merosining har tomonlama mukammalligi va ma’naviy boyligi barchaga ayondir. Ma’lumki, har qanday milliy meros davrlar osha avlodlardan -avlodlarga o‘tib kelgan. Bu albatta og‘zaki tarzda asrlar osha xalqimizni ma’naviyati sifatida amaliyot rivojiga xizmat qilib kelmoqda.

Milliy qadriyatlar zamon talabi taqozo etgan urf, odat, mehnat va hayot jarayonisekin-asta zamonga moslanib, an’anaga aylanib boraveradi. Milliy musiqa merosimizning shakllanish jarayonida xalq an’analari muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, mavjud an’analar bir-birini to‘ldiruvchi, alohida o‘ziga xoslik xususiyati va sifatiga ega bo‘lib kelgan. Azaldan ana’ana tarzida bizgacha etib kelgan va davr taqozosi bilan zamonaviy rivoj topib kelayotgan xalq musiqasini o‘rganish hozirgi kunda har doimgidan ham ahamiyatlidir. Chunki, hozirgi umumbashariyat madaniyatlarining o‘zaro ta’siri davrida milliy an’analarni saqlash, avaylash va ijodiyotni shunga asoslash juda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI Xalq musiqasining azaldan shakllanib kelgan bir qator yo‘nalishlari mavjud. Xalq musiqasi, mumtoz musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti shular jumlasidandir. Mumtoz musiqa merosimiz tarkibidan o‘rin olgan namunalar an’anaviy musiqa deb yuritilib kelingan. An’anaviy musiqaning yirik shakli, xalqimizning ma’naviy dunyosini, hayotiy kechinmalarini ohanglarda aks etib kelgan maqomlarimizdir.

Maqomlar bizning yurtimizda o‘ziga xos vohaviy ahamiyatga ega bo‘lgan uch namunasi mavjuddir. Maqomat tizimimusiqa amaliyotida Shashmaqom-Buxoro maqomlari, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari deb yuritiladi. Muqarrarki, har bir musiqiy merosning o‘z vohaviy jihatlari mavjud. Ana shu jihatlar eng avvalo ularning ijrochilik mezonlarida o‘zini namoyon etadi. Ijrochilik ham juda katta va xilma -xil uslublarga ega. Bu uslublar o‘z o‘rnida turli shakllar bilan ham xarakterlanadi. Eng muhimi ijrochilik san’atining o‘zbek milliy an’analari yuzaga kelgan.

Ijrochilik an’analari ham xalq ijodiyotidagi oddiy va murakkab namunalariga egadir. Maqom ijrochiligi murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bois ijrochilik amaliyotida yakkaxonlikdan toki jamoaviy –ansambl bo‘lib ijro etish shakllari yuzaga kelgan. Ansambl bo‘lib ijro etishning musiqa ijrochiligi, qolaversa xalqlarning musiqiy an’analaridagi ijrochilik mezonlari o‘ziga xosdir. Har bir xalqning o‘z milliy musiqasi va milliy qadriyatlari negizida ansamblli ijro yo‘llari shakllangan. Davrlar osha madaniyatimiz rivojlanishi negizida esa o‘zbek maqom ijrochiligi yoki maqom yo‘llariga mansub mumtoz musiqa ijrochiligida ham o‘ziga xos ansamblli ijro an’analari yuzaga kelgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Bizning davrimiz, ansambl ijrochiligini yangi qirralarini ochish, o‘tmish an’analari asosida zamonaviy shakllarni yaratish bilan bog‘liqdir. Maqsad ham ma’naviy boyligimizni asrash, ularni mukammalligini o‘zlashtirish va yangi talqinlarini yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir. Chunki, mustaqil yurtimizning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama ma’naviyatli, komil inson sifatida tarbiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda. Mazkur maqolada sozandalikni kasb etgan va ushbu yo‘lda saboq olayotgan yosh xonandalar uchun nazariy va amaliy ma’lumotlar bayon etdik.

XULOSA VA TAKLIFLAR: Albatta yoshlarning mavjud ijro uslublarini egallashlari kelajakda o‘z kasbining munosib egalari bo‘lishlarida manba bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir talabamaqom yo‘lida yaratilgan ashulalar va xalq og‘zaki ijodi namunalarini yaxshi o‘rganib, kelajakda o‘z faoliyati jarayonida qo‘llasa,o‘quvchilarni ma’naviy tarbiyalashdabunday asarlardan foydalansa, yoshlarning qadimiy va serjilo mumtoz ashulalarimizga bo‘lgan munosabatlari shakllanib, ularni tinglash va kuylashga istagi yanada ortadi.

So'nggi yillardagi o'zgarishlar va yangilanishlar musiqada, xususan maqomlarda o'z aksini topmoqda. O'zbek milliy maqomlarimiz jahon miqyosida yanada keng tanilishi va o'zining yuqori darajadagi musiqiy qadriyatlarini namoyon etishi kutilmoqda. Bizning maqsadimiz maqomlarning tarixiy, madaniy va musiqiy ahamiyatini yanada chuqurroq tushunish va ularni global musiqiy maydonda kengroq tanitishga erishishdir. Bu, nafaqat o'zbek musiqiy merosining, balki umumiy musiqiy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Poytaxtimizda O‘zbek milliy maqom san’ati markazi tashkil etilgan bo‘lib, uning samarali faoliyati boshlanishi katta ahamiyatga ega voqealardan biridir. 2021 yil sentabr oyidan boshlab Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti faoliyatini boshladi. Bu instituting faoliyati, maqomlarni tadqiq qilish va ularni o'rgatish sohasida yangi yutuqlar va natijalarga erishishda muhim rol o'ynamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning ta'rixi. - Tos’hkent: Fan, 1993
2. Matyoqubov O. Maqomot T.,2004
3. Matyoqubov O.,Boltayev R.,Aminov H. O‘zbek notasi(Xorazm tanbur chizig'i asosida Dutor maqomi namunalari) T.,2009
4. R.Qosimov - An’anaviy rubob ijrochiligi O‘zbekiston 2000.
5. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963
6. Rajabov Y. Shashmaqom, (I-VI); O‘bek xalq muzikasi.(I-V) Tos’hkent. 1965
7. Yunusov R. O‘zbek xalq musiqa ijodi II-qism. T., 2000
8. Yunusov R. S’harq xalqlari maqomlari T.,2022
9. Джами Абдураҳман. Трактат о музыке. /пер.с перс. А.Н. Болдырева. Комент.В.М. Беляев. Т., 1960
10. Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макомы Т.,2006